



SHAYBONIYXON VA ISMOIL SAFAVIY O'RTASIDAGI KURASH

Umidjon Sotivoldiyev Xakimjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Ismoil Safaviy o'zining zohidligi va taqvodorligi bois, Eron turklari qoshida muhtaram hisoblangan Shayx So'fi oilasining farzandi Ismoil Safaviy edi (tarixda safaviylar deb ataladi). Shayx So'fi ardabillik bo'lib, maqbarasi eroniylar orasida hozir ham juda muborak tutiladi. Endi 14 yoshga to'lgan va o'z tarafidagi siyosatda dushmanlarini mag'lub qilgan Shoh Ismoil din ziyosining dabdabasi soyasida o'z oilasining oddiygina joynamozini butun Eronning oliy taxtiga aylantirishga muyassar bo'ldi. Ismoil nasl jihatidan turkdir. Garchi maddohlari uning diniy shuhratini oshirmoq uchun So'fi naslining yettinchi imom bo'lgan Musodan boshlanishini gapirsalar ham, Hazar dengizining g'arbida yashovchi yetti turk qabilalari odatan uni iloh darajasida hurmat qilar edilar¹.

Ismoil harbiy muvaffaqiyati soyasida Eron bilan Arabistonning katta qismida hokimiyat o'rnatdi. Xususan, uning eng zo'r xizmati va shuhratini orttirgan narsa shuki, ota-bobolari an'anasi bo'yicha harakat qilib, mazhabini qattiq suratda himoya etdi va targ'ibot vositasida to'rtinchi xalifa hazrat Ali avlodiga hurmatini milliy ibodat darajasiga ko'tardi. Islom dinining o'zidek eski bo'lgan shia mazhabining suluklari islom dunyosining boshqa taraflariga nazaran har vaqt Eron xalqlari orasida ko'proq tarqalgan. Shialik Som qavmidan chiqqan fotihlar (arablar) tarafidan har vaqt mag'lub va mazlum Eron avlodlarning hissiyot- mayllarining jarohatlanishiga sabab bo'lmoqda edi. Yuqorida zikr etilgan Boysunqur Mirzo kabi shialar yoxud arablarning Buxoroning zabti vaqtida Sharik bin Shayx al Mahdiyning g'alayonidan anglashilgan kabi yashirin ravishda shialik ba'zan Frot daryosining narigi tarafida va Movarounnahrda bo'lsa-da, uning haqiqiy markazi har doim Eron ekanligidan

¹ Петрушевский И.П. Ислам в Иране... – С. 357-358



sunniylarning eng katta nafratlari unga qaratilgan edi. Bu mazhab yashirin tutilgan vaqtda, raqiblari e'tiroz va istehzo bilan qanoatlanar edilar. So'filar uni o'zlarining bayroqlariga yozib, maydonga chiqishlari bilanoq sunniy xonlarning zarariga harakat eta boshladilar. Keyin sunniylarning g'azabi nihoyatda kuchaydi va har ikki taraf baravar darajada dinni o'zlarining dunyoviy maqsadlari yo'lida bahona qildilar. Bu mazhab dushmanligining natijasi Osiyoning g'arbida Uzun Hasan bilan Istambul fotihi o'rtasidagi urushlar vaqtda ko'rindi, urushning kuchayishiga sabab bo'ldi. Shu paytlarda Eron turklarining «Yo, Ali!» degan tovushlari eshitilar edi. Ammo sharqda bu mazhab dushmanligi birmuncha muddat qo'l ostida cho'g'day ko'milib yotdi va madaniy hayotda nozik bir suratda maydonga chiqdi. Sulton Husayn Mirzoning (1457-1507) bu vaqtdagi saroy ahvolidan anglashiladiki, Hirot va Movarounnahrning eronli sunniy arablari Eron madaniyat va maorifining yolg'iz shialarga maxsus bo'lmaganini isbot qiladi. Bir oz keyin Xurosonda temuriylar bilan do'stlik munosabatini o'rnatgan Uzun Hasan davrida bu masala O'rta Osiyoda, xususan, Buxoroda yuqori darajada ahamiyat kasb etdi. Buning sabablaridan biri, Abusaidning, sunniylarning haq yo'lida qurbon bo'lishi hisoblanadi².

Shialik Eronda keng tarqalishi barobarida O'rta Osiyo xalqlarining bu g'ayri e'tiqodga nafrati orta bordi. Sulton Husayn Mirzoning hayotlik vaqtida ham Hirot, Buxoro, Samarqand ulamosi shialarga ablahlik va nomussizlik tamg'asini bosib, musulmon bo'lmaganlari uchun, deb ularning umumiy ravishda qul qilib sotilishiga imkon berdilar va ular bilan nikohni makruh deb e'lon qildilar. Shayboniy Muhammadxon o'zining Xurosondagi muvaffaqiyatlaridan so'ng, istilo yo'lida Iroq chegarasiga yaqinlashib kelgan paytlarda, sunniy va shia mazhablari orasidagi munosabat ana shu holda edi. Shoh Ismoil bilan ikki orada to'qnashuv chiqishi tabiiy edi. Turkлар: «Qilichni qinidan chiqargan odamga undan foydalanish uchun sabab izlashga ehtiyoj qolmas» derlar. Shayboniy shunga binoan harakat qilishi mumkin edi. Lekin u qahramon so'figa qarshi jangni muqaddas din ruhi bilan jonlantirib, yanada qattiqroq hayajon hosil qilish uchun avlodining bir voizi sifatida yuzlandi va

² Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: G'ofur G'ulom, 1990. – B. 92



914 (1508) sanada ularga ushbu mazmunda maktub yozdi: «Ey, Eron hukmdori! Menga yetmish ma'lumotga qaraganda, sen zalolat yo'liga ergashib, shayton ig'vosiga berilib, shia mazhabini tarqatmoqda ekaksan. Senga tanbeh berib aytamanki, bu g'ayri shar'iy mazhabdan voz kechib, ahli sunnat jamoasiga qaytgil. Yo'qsa, yoqqan isyoning olovi o'zingni kuydirar. Sen xato yo'ldasan. Shayton kasofatidan abadiy qutulish uchun bu zalolatingdan voz kechib, haq yo'liga qayt. Agar mening bu so'zlarim sening tarafingdan e'tiborga olinmasa, balki hisobsiz ko'p lashkarim bilan Iroqqa kirarman va o'tkir qilichimni qo'limga olib, sening Isfahon saroyingni harni qadar, uning gumbazli burchlari g'oyat yuksak bo'lsalar-da, yer bilan yakson etarman. Mening jazom Iroq ahli uchun qiyomatgacha unutilmas darajada shiddatli bo'lur». Shoh Ismoil bu maktubni javobsiz qoldirgan shekilli, Shayboniy buni uning zaifligiga yo'yib, qo'l ostidagi keng mamlakatni yanada kengaytirish payiga tushdi. Xurosonning janubidagi shafqatsiz o'zbek o'rdusi Qandahorning narigi tarafiga kechib o'tdilar. Ular shu tariqa Qirmon ustiga hujumga hozirlik ko'rayotganlarida Shoh Ismoil hujumni to'xtatish qasdi bilan Shayboniyga vakil jo'natdi. Shayboniy yana do'q-po'pisa bilan javob berdi. So'figa kashkul va hassa yuborib, quyidagi maktubni yozdi: «Bu hadyalarni qabul et, ular sening otangdan qolgan meros alomatlaridir. Ammo menga kelganda, men o'zimning mashhur ulug' bobom Chingizdan meros qilich bilan hokimiyat oldim. Agar sen o'zingning tilanchilik unvoningdan rozi bo'lmasang, o'z muomalangdan, o'zingdan o'pkala».

Mirxond³ning rivoyatiga qaraganda, Shoh Ismoil bunga qarshi: «Xo'p, agar men darvesh bo'lsam, ulug' Imom Rizoning qabrini ziyorat qilish uchun Mashhadga borish fikridaman, sen bilan o'sha yerda uchrashamiz», degan⁴. Shoh Ismoil urush safariga tamom tayyor edi. Shayboniy esa, tik qoyalar orasida joylashgan firuzko'hi qabilasining isyoni sababli janubga harakat qilishni to'xtatishga majbur bo'ldi.

³ Mirxond, Mir Muhammad ibn Said Burhonuddin Xovandshoh ibn Kamoliddin Mahmud 1433-1498- yillarda yashagan tarixchi olim. Ota-bobolari asli buxorolik bo'lib, fiqh ilmida mashhur bo'lishgan. Uning eng mashhur asari 1494-yilgacha yozilgan 7 jildli "Ravzat us-Safo fi siyratul-anbiyo val-mulk val xulafo" ya'ni ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i") deb nomlanadi.

⁴ Ahmedov B. "O'zbek ulusi" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.-T. 1992. B. 76.



Ularni jazolamoq bilan ovora paytida Shoh Ismoilning kuchli bir qo'shin bilan Mashhad tomon borishi haqida habar olindi. Buning ustiga, yana Sirdaryoda qirg'izlarga qarshi kurashayotgan o'g'li Muhammad Temurning Mo'yunsiz Hasanning hujumiga yo'liqib, dahshatli bir suratda yengilgani haqida Movarounnahrda favqulodda taassufli va qayg'uli ikkinchi bir habar tegdi. Shu tariqa Shayboniyning kuchli qo'liga, o'tkir ko'ziga ayni zamonda uch tarafdan zarba sezildi. Bundan tashqari, uzoq safr mashaqqatlari bilan uning lashkari charchagan va bo'shashib qolgan edi. Shayboniyning o'zi ham Marvda, Amudaryoning narigi tomoniga ketish yoki dushmani cho'lining yoqasida kutmoq haqida qat'iy bir qarorga kela olmadi. Holbuki, bu paytda Shoh Ismoil Domg'on, Sabzavor, Nishopurning soqchi askarlari bo'lgan o'zbeklarni quvib, favqulodda sur'at bilan Mashhadga yaqinlashmoqda va dahshatli qo'shin guruhlar bilan tajovuzni davom ettirmoqda edi.

Shunday ahvolda Shayboniy hech bir joydan yordam olishga umid qila olmas, binobarin, uning uchun yagona chora vaqti yetib yordam kelsa, qamaldan qutulish umidi bilan Marv qal'asi devorlari ichida o'zini himoya etishdan iborat edi. Shayboniy Marvga kirib olsa, vaqtdan yutishini bilgan Shoh Ismoil hiylaga o'tdi⁵. U Shayboniyga quyidagi mazmunda maktub yozdi: «Sen meni Ozarboyjonda ziyorat etishga va'da bergan eding. Lekin so'zingda turmading. Shaxsan men o'zim Xurosonga keldim. Shu bois sen meni qabul qilishni istamaysan, musofirning oldida darvozalaringni yopding. Anglashildiki, hozir sen bunda yashirinib qolishni istaysan. Eron va Ozarboyjondagi ma'lum voqealar meni ham qaytishga majbur etadilar, shu sababli men bu yerdan askarimni olib ketaman va ko'rishmog'imizni taqdirga havola etishga qaror qildim. So'z ortida ish ham bajarildi. Hiylakor Eron hukmdorining askari qayta boshlashi bilan charchagan va oz miqdordagi o'zbek askari shaxsan Shayboniyning qo'mondonligi ostida chekinuvchi askarning orqa tarafidan hujum qilib, ularni Murg'obning narigi tarafiga qadar ta'qib etdilar. Shu payt orqalaridagi ko'prikning buzilganini ko'rib, o'zlarining hiyla qurboni bo'lganlarini angladilar. 17

⁵ Петрушевский И.П. Ислам в Иране. – С. 363



mingga qadar eroniy o'zbeklarni bir davra ichiga o'rab olganlaridan keyin dahshatli suratda qonli bir urush boshlanib, Shayboniyni halokati bilan tugadi ⁶. Dushmanlari e'tirof etishicha, o'zbeklar halokatining muqarrar ekanini ko'rib, haqiqiy qahramonlik bilan qarshi turdilar. O'zbeklarning yarim miqdori halokat topgach, Shayboniy bir necha sodiq va qahramon tarafdorlari bilan eroniylarning tig'iz saflarini buzib chiqadigan jangni avj nuqtasiga ko'tarmoq uchun o'zining saroy doirasiga ketishga harakat qildi. Ammo tezda tutildi va butun tarafdorlari bilan qatl etildi. Uning ko'p joydan yaralangan gavdasi ushbu xaroba ichida o'ldirilganlar orasidan topildi.

Shayboniy qahramonlarcha halok bo'lgan vaqtda 61 yoshda edi. Shoh Ismoil uning bosh chanog'ini oltin bilan qoplatib, kosa o'rnida foydalandi. Ikkinchi bir rivoyatga ko'ra, go'yo uni Istambulga, Sulton Boyazidga yuborgan emish. Chunki Movarounnahr hukmdori bilan Sulton Boyazid o'rtasida harbiy ittifoq bor edi. Shayboniyni o'ng qo'li gavdasidan olinib, tubandagi mazmunda masxarali bir xat bilan o'zbeklarning tarafdoriga, Mozandaron hokimiga yuborilgan ekan. Xatda shu so'zlar yozilgan: «Sen har vaqt Shayboniyni tarafini olishni istar eding. Faqat uning tirikligida bu senga nasib etmadi. Shu istaging amalga oshsin deb Shoh Ismoil hozir senga shu homiyni qo'lini berdi»⁷. Buni Eron tarixchilari naql qiladilar. O'rta Osiyo tarixchilarning aytishlariga qaraganda, uning mayiti o'zi tarafidan Samarqandda 916 (1510) yilda bino qilingan go'zal bir madrasa ichida dafn etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: G'ofur G'ulom, 1990. – B 95.
2. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar...-T.: Sharq, 1999. B.35.
3. Ahmedov B. "O'zbek ulusi" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.-T. 1992. B. 76.
4. Петрушевский И.П. Ислам в Иране... – С. 357-358

⁶ Ibrohimov A.. Bizkim, o'zbeklar...-T.: Sharq, 1999. B.29-30

⁷ Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: G'ofur G'ulom, 1990. – B 95.